


## XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 381,8 ming so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,6 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 212 102 ta korxonalar va tashkilotlarda tashkil qildi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, foizda

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming so'm  
(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)


**SANOAT SOHASIDA**



*Yanvar-Dekabr*

4 812,8  
ming so'm


**QURILISH SOHASIDA**



*Yanvar-Dekabr*

2 362,9  
ming so'm


**SAVDO SOHASIDA**



*Yanvar-Dekabr*

2 649,6  
ming so'm

**TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA**



*Yanvar-Dekabr*

2 257,7  
ming so'm

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



3 760,0  
ming so'm *Oktabr*

*Noyabr* 3 753,6  
ming so'm

4 254,4  
ming so'm *Dekabr*

*Yanvar-Dekabr*

3 713,6  
ming so'm

## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



9 739,5  
ming so'm *Oktabr*

*Noyabr* 10 022,5  
ming so'm

12 295,5  
ming so'm *Dekabr*

*Yanvar-Dekabr*

9 782,6  
ming so'm

## TA'LIM SOHASIDA



2 824,4  
ming so'm *Oktabr*

*Noyabr* 2 982,8  
ming so'm

2 919,3  
ming so'm *Dekabr*

*Yanvar-Dekabr*

2 688,0  
ming so'm

## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



2 887,2  
ming so'm *Oktabr*

*Noyabr* 2 629,4  
ming so'm

2 826,7  
ming so'm *Dekabr*

*Yanvar-Dekabr*

2 678,9  
ming so'm

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili:**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Sanoat** sohasidagi 72 ta korxonada va tashkilotlarda 42,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,9 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 399,6 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 28,5 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 812,8 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 27,8 % ga o'sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 11 ta korxonada 0,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,3 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 18,5 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 362,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga o'sdi.



**Savdo** faoliyat turidagi 19 ta korxonada 1,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 50,5 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 649,6 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga o'sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 14 ta korxonada 2,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 59,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 257,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 25,1 % ga o'sdi.



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasidagi 3 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 597,3 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga o'sdi.



**Axborot va aloqa** sohasidagi 9 ta korxonada 1,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 43,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 713,6 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga o'sdi.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 484,4 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 9 782,6 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 35,4 % ga o'sdi.



**Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1 517 ta korxonada 93,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,9 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 954,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 35,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 688,0 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga o'sdi.

**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 82 ta korxonada 40,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,9 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 279,3 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 678,9 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga oʻsdi.




**Sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasidagi** 67 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 59,7 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 2 340,4 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga oʻsdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 392 ta korxonada 25,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 12,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 1 067,2 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 12,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 3 498,4 ming soʻmni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga oʻsdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng yuqori oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 9 782,6 ming soʻmni tashkil etdi. Shuningdek yuqori koʻrsatkichlar sanoat faoliyat turida (4 812,8 ming soʻm) va axborot va aloqa faoliyat turida (3 713,6 ming soʻm) kuzatildi. Eng past koʻrsatkich esa yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 1 597,3 ming soʻmni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yil yanvar - dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,  
ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (5 393,2 ming so‘m), Andijon shahrida (4 338,4 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati**  
(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'mda)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 758,7</b>	<b>3 381,8</b>	<b>122,6</b>
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	3 503,4	4 227,4	123,8
Xonobod sh.	2 871,5	3 670,2	127,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	2 051,6	2 318,1	113,0
Andijon	2 131,9	2 609,2	122,4
Baliqchi	1 783,9	2 128,3	119,3
Bo'ston	1 874,7	2 186,6	116,6
Buloqboshi	1 972,2	2 220,2	112,6
Jalaquduq	2 105,1	2 320,8	110,2
Izboskan	2 215,9	2 664,7	120,3
Ulug'nor	1 953,8	2 233,7	114,3
Qo'rg'ontepa	2 088,7	2 663,2	127,5
Asaka	4 309,5	5 393,2	125,1
Marhamat	1 887,4	2 559,5	135,6
Shahrixon	2 199,0	2 727,0	124,0
Paxtaobod	2 268,2	2 773,0	122,3
Xo'jaobod	2 134,5	2 413,8	113,1



**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyat ko'rsatkichiga nisbati foizda**  
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (5 393,2 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 159,5 % ga yuqori), Andijon shahri (4 338,4 ming so'm, 128,3 % ga yuqori)da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani (2 186,6 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 64,7 % ga past) va Baliqchi tumani (2 128,3 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 62,9 % ga past)da kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil sentabr oyidan **920 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022- yil 20- maydagi PF 138-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

